https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Siddiqova Umidaxon Soxibjon qizi

Farg‘ona viloyati Buvayda tumani

XTIDUM maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

umidasiddiqova466@gmail.com

TEMURIY SHAHZODALAR OBRAZINING BADIIY TALQINI (SULTON UVAYS BAHODIR MISOLIDA)

Annotasiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonining 37-bobi asosida Sulton Uvays Bahodir obrazining badiiy talqini tahlil etiladi. Asarda Navoiy tomonidan shahzodaga berilgan pand-nasihatlarning ma’nosi, ularning badiiy va tasavvufiy qatlamlari o‘rganiladi. Tahlil davomida shoirning so‘z tanlovi, tashbeh, istiora, tazod, talmeh kabi san’at vositalaridan foydalanish uslubi ko‘rsatib beriladi. Maqolada shuningdek, Navoiyning shariatga sodiqlik, ota-onaga ehtirom, adolat va xalqparvarlik g‘oyalari markazga qo‘yilgan bo‘lib, Uvays Bahodir timsolida adolatli, ilohiy ma’naviyatga asoslangan shoh idealini yaratish yo‘nalishidagi ijodkor mahorati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Navoiy, Sulton Uvays Bahodir, nasihat, tashbeh, istiora, tazod, talmeh, adolat, soqiynoma, shariat, shoh timsoli.

Annotation: This article analyzes the artistic interpretation of Sultan Uvays Bahodir based on the 37th chapter of Alisher Navoi’s epic “Layli and Majnun.” The study explores the meaning of the poet’s moral and spiritual advice addressed to the prince, as well as their artistic and Sufi dimensions. The analysis highlights Navoi’s mastery in using literary devices such as metaphor, simile, antithesis, and allusion. The article also focuses on Navoi’s ideas of devotion to Sharia, respect for parents, justice, and benevolence. Through the image of Uvays Bahodir, the poet presents the ideal of a just ruler grounded in divine spirituality.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Keywords: Navoi, Sultan Uvays Bahodir, advice, simile, metaphor, antithesis, allusion, justice, soqi-nama, Sharia, image of the ruler.

Аннотация: В статье анализируется художественная интерпретация образа Султана Увайса Бахадира на основе 37-й главы поэмы Алишера Навои «Лайли и Маджнун». Рассматриваются смысл и духовно-нравственные аспекты наставлений поэта, обращённых к шахзаде, а также их художественные и суфийские уровни. Показано мастерство Навои в использовании таких поэтических средств, как сравнение, метафора, антитеза и аллюзия. Особое внимание уделено идеям верности шариату, почитания родителей, справедливости и народолюбия. В образе Увайса Бахадира поэт создает идеал справедливого правителя, основанный на божественной духовности.

Ключевые слова: Навои, Султан Увайс Бахадир, наставление, сравнение, метафора, антитеза, аллюзия, справедливость, сакийнаме, шариат, образ правителя.

KIRISH (INTRODUCTION). Alisher Navoiy ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotining yuksak bosqichi bo‘lib, unda adabiy san’at, axloqiy g‘oya va tasavvufiy qarashlar bir butunlikda mujassamdir. “Layli va Majnun” dostonining 37-bobida Sulton Husayn Boyqaroning jiyani – ya’ni akasi Boyqaro Mirzoning 3-o‘g‘li shahzoda Sulton Uvays Bahodir madh etiladi. Bu bob o‘z mazmuni bilan nafaqat madhiy, balki nasihatnoma xususiyatiga ega. Navoiy bu bobda shahzodaning fazilatlarini sanar ekan, mohirona tarzda unga shariatga sodiq bo‘lish, adolat va himmat yo‘lidan borish haqida nasihat qiladi. Shu bilan birga, yosh shahzodaga zamonasining adolat timsoli bo‘lgan Sulton Husayn Boyqaroni ibrat sifatida ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Navoiy ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan dastlabki ilmiy qarashlar XX asr boshlaridan boshlab shakllangan bo‘lib, bu yo‘nalishda Fitrat, Ayni, Sadriddin Ayniy, keyinchalik esa V. Zohidov, A. Hayitmetov, N. Komilov, B. Valixo‘jayev, S. G‘anieva, H. Sulaymonov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Ushbu tadqiqotlarda Navoiy shaxsiyati va ijodi Sharq uyg‘onish davri tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda yoritilgan.

Navoiy “Xamsa”sining alohida dostonlariga bag‘ishlangan izlanishlarda, jumladan, “Saddi Iskandariy” dostonida ideal hukmdor konsepsiyasi, adolat, davlat boshqaruvi, shoh va raiyat munosabatlari masalalari yetakchi mavzu sifatida ko‘rilgan. Biroq temuriy shahzodalar talqini yetarlicha ochib berilmagan, xususan shahzoda Uvays Mirzo talqiniga deyarli qo‘l urilmagan. Yuqoridagi dalillar maqolaning ahamiyatliligini yaqqol ko‘rsatib turipti.

METODOLOGIYA (METHODS). Tadqiqotda quyidagi ilmiy yondashuvlardan foydalanildi: Poetik-tahliliy metod: baytlardagi badiiy san’atlar (tashbeh, istiora, tazod, iyhom) aniqlanib, ularning mazmuniy yuklamasi tahlil qilindi.Tasavvufiy tahlil: “soqiy”, “may”, “qadah” kabi ramzlarning ruhiy-ma’rifiy ma’nosi ochib berildi. Manbashunoslik yondashuvi: Tadqiqotda 2012-yilda chop etilgan “Navoiy to‘la asarlar to‘plami” (7-jild) asosiy manba sifatida olindi.

Alisher Navoiy bu bobda Sulton Uvays Bahodirni maqtov va nasihatlar orqali tasvirlaydi. Uning davlat boshqaruvidagi adolati, ilm va donolikka bo‘lgan muhabbati, xalq manfaati uchun qilgan xizmatlari madh etiladi. Shoir so‘nggi bobda Uvays Bahodirga hikmatli so‘zlar, hayotiy pandlar orqali "Adolatli shoh qanday bo‘lishi kerak?" degan g‘oyani ilgari suradi.

NATIJALAR (RESULTS).


Navoiy temuriy shahzodalar talqinida dastlab madh qilish orqali boshlaydi va bu sarlavhadanoq bilinib turadi.

“Shahzodai sipehrjanob va sipehri xurshed intisob, ya’ni Sulton Uvays Bahodir madhida so‘z intihosi va nasoyih bisotida ko‘p la’l va durri maknun va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mavoiz xonida favokih va niami gunogun ul hazratqa quloqqa olmoq va og‘izg‘a solmoqning salosi” [1, 261]. Shahzodai sipehrjanob, sipehri xurshed intisob – quyosh osmoniga mansub, ya’ni nur sochuvchi, adolatli, bilimli, ulug‘ zot degani bo‘lib, sarlavhadagi "osmon" so‘zi "yuksak martabali" shahzoda degan anglamida keladi. Madhida so‘z intihosi – bu bob Sulton Uvaysning madhiga bag‘ishlangan bo‘lib, shu madh bilan doston yakunlanmoqda. Nasoyih asosida ko‘p la’li va durri ma’nilar maknuni – Navoiy bu bobda pand-nasihatli, hikmatli, “la’l” (qimmatli so‘z), “durr” (donolik marvasi) so‘zlarini jamlaganini bildiradi. Mavoiz xonida favokih va niami gunogun – bu so‘zlar “mavoiz” (nasihat), “favokih” (serhosil, serma’no), “niami gunogun” (go‘zal so‘zlarning jarangi) ma’nosida. Ya’ni, bu bobda o‘ta chuqur va foydali nasihatlar berilgan. Ul hazratqa quloqqa olmoq va og‘izg‘a solmoqning salosi – bu hikmatli so‘zlar tinglovchiga lazzat beruvchi, til bilan aytishga, quloq bilan tinglashga arzigulik so‘zlardir.

Rasm 1. Uvays Mirzo shajaraviy sxemasi



1-rasmda ko‘rsatilganidek, Uvays Mirzo Amir Temur naslidan bo‘lib, Shohrux Mirzo orqali temuriylar sulolasiga mansubdir.

Sultoni zamon, Uvays ul shoh,

Kim, charx anga keldi xoki dargoh[1, 261].

Navoiy shahzodani madh etish barobarida misralarga nasihatni ham singdirib boradi. "So‘zingning ulug‘ligi shu qadar bo‘lsinki, u falakdagi yulduzlar kabi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

porlasin, dengizdagi durlar singari, konlardagi la'ldek qimmatbaho bo'lsin, deya so'zga e'tibor qaratishi xususida nasihat va alqovlar aytadi. Bu yerda **"falaknishonlig'" , "Axtar kabi durfishonlig'"** so'zlarida o'xshatish bor. Shoir "so'zda falaknishonlik qil, yulduzdek porla" deya inson nutqini yulduz nuriga o'xshatgan. Bu yerda so'zni osmon darajasiga ko'targan holda, yuksak ma'noga ega so'z aytish ramzi ishlatilgan va istiora san'ati qo'llangan. "Yetti ato shohu shahriyor ul" jumlasi esa bizga ikki xil ma'noni beradi. Bu yerda "yetti ato shoh" ifodasi ramziy: u mukammal, komil shoh timsolini bildiradi. Shu bilan birga shahzodaning yetti ajdodi ham shoh bo'lganiga ishora qiladi va tamsil san'atini yuzaga keltiradi. **Shahzoda, shoh, shahriyor** so'zlari ishtiqoq, **Uvays** so'zi esa talmehga misol bo'la oladi.

Bo'l banda ato-anog'a yakson,

Kim, Haq dedi volidayn ehson[1, 263].

"Ota-onangga sadoqatli banda bo'l, chunki Haq (Alloh) ota-onaga yaxshilik qilishni buyurgan." Ya'ni, insonning ota-onaga hurmati – bu ilohiy buyruqdir. Shoir bu fikrni Qur'on oyatlari mazmuni asosida ifodalayapti: "Robbingiz faqat Unga ibodat qilishingizni va ota-onaga yaxshilik qilishingizni buyurdi." Isro surasi (17-sura), 23-oyat[4, 284]. Yuqoridagi baytda iqtibos san'ati yuzaga kelgan. "Haq dedi volidayn ehson" – bu Qur'ondagi buyruq mazmunini she'riy shaklda keltirishdir. Bayt to'la nasihat ruhida yozilgan bo'lib, ota-onaga yaxshilik – bu imonli insonning belgisi. Shu bois, bu hikmat (ma'rifiy-didaktik san'at) namunasi hisoblanadi. Bayt mazmunidan Haqqa qanday itoat qilinsa, ota-onaga ham shunday itoat zarur degan xulosa kelib chiqadi. Baytda Qur'ondagi "Ва бил-волидайни ихсона" (ota-onaga yaxshilik qiling) oyatiga ishora bor. Bu esa talmeh san'ati namunasidir.

Davlat talab aylasang Xudodin,

Bosh tortma shar'i Mustafodin[1, 263].

Baytning umumiy ma'nosi shundan iboratki, "Agar Xudodan davlat (baxt, martaba, saodat) istasang, Muhammad (Mustafoning) shariatidan yuz o'girma".

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ya’ni, dunyoviy va oxiratdagi baxt – Allohga imon va Payg‘ambar yo‘liga amal qilish bilan chambarchas bog‘liq. Shoir bu orqali insonni diniy e’tiqod va shariatga sadoqatga chaqiradi. Ushbu baytda talmeh (ishora san’ati) ochiq qo‘llangan bo‘lib, “Shar‘i Mustafo” – bu Islom dini va Muhammad (s.a.v.) shariati haqidadir.

Shohiki atong anga ag‘odur,

Ul sanga ag‘oduru atodur.

Bu ikki atog‘a qil o‘g‘ulluq,

Yo‘q-yo‘qki, bu ikki shahg‘a qulluq[1, 264].

Misralar mazmunidan anglashiladiki, Uvays shahzodaning otasi Sulton Husaynga aka(ag‘o)dir, nafaqat aka balki ota(ato)dir deyiladi. Uchinchi misrada bu ikki otaga o‘g‘illik qil deyayotib, fikridan qaytadi hamda bu ikki shohga qulluq qilgin deydi. Misralar mazmunidan shahzodaning otasi ham amakisi ham shoh bo‘lgani anglashiladi. Oxirgi misradagi “**qulluq**” so‘zining ikki ma’nosi mavjud: 1. Ma’nosi (majoziy, ijobiy)–xizmat, ehtirom, sadoqat bilan xizmat qilish, 2. Ma’nosi (haqiqiy, salbiy yoki tanqidiy)–bo‘ysunish. Ushbu misrada iyhom san’atining takrorlanmas namunasi ishlatilgan.

Ne zulm qilurg‘a elni qotqil,

Ne zulm qo‘lin o‘zung uzotqil[1, 265].

Navoiy: "Elni zulm qilishga chorlama, o‘zing ham zulmdan qo‘lingni tiy",– deya zolimlikni qoralamoqda. **Elni qotqil** va **zulm qo‘lin uzotqil so‘zlari** ko‘chma metaforik ma’noda qo‘llangan, ya'ni elni yomon ishlarga majburan bajartirishga urunma, yomon ishlar keltirib chiqaradigan holatlarga o‘zing ham aralashib qolma, degan nasihat mavjud. Baytdagi birinchi va ikkinchi misra boshida takrorlangan **Ne zulm** so‘zlari anaforani hosil qilgan va badiiy ohangdorlik kuchaygan. Hazrati Navoiy keyingi misralarda misollar asosida quyidagilarni bir-bir sanaydi:

"Qassob qo‘yni boqsa, bu mehrdan emas, so‘yish uchun. U (qo‘yni) boqishi – aslida uni so‘yishga tayyorlashdir. Shunday parvarishchi (boquvchi)ni sevgili,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mehribon deb o‘ylash – ahmoqlik." Sun’iy mehr, yolg‘onparvarlik va foydaparastlikni tanqid qilgan Navoiy shahzodaga "Sen ham o‘z maqsading yo‘lida xalqdan foydalanma" degan xulosa aytadi. Baytdagi Qassob – dunyoviy manfaatparast; qo‘y – sodda, ishonuvchan inson timsolida qo‘llanilgan bo‘lib, ular tashbehning nafis namunasini ko‘rsatmoqda.

Soqiyning o‘zi shahzoda Uvays Bahodur bo‘lib, Navoiyga qadahda boda tutmoqda, qadahdan bo‘lgani avval o‘zi ichmoqda, keyin shoir(Navoiy)ga uzatmoqda. Ya’ni, Navoiy: “Ulug‘lar oldin bu ilhomdan ichsinlar, men ulardan keyin o‘sha haqiqat mayidan bahramand bo‘layin,” – degan ruhda yozgan. O‘zidan shahzodani ham ruhan, ham aqlan ustun qo‘ygan, uni ma’naviy ustozi deb bilgan.

Rasm 2.



Navoiy shahzodaga bag‘ishlangan bobda nafaqat ularning xarakter va fazilatlarini tahlil qilishi, balki shaxsiy xulosa chiqarish orqali o‘zini quyi holatga qo‘yib, ruhiy va axloqiy jihatdan o‘ziga yordam so‘rash mexanizmini ham ifodalaydi. Bu holat, shoirning tarixiy shaxslarni talqin qilishda psixologik va axloqiy tahlil yondashuvini qo‘llashini ko‘rsatadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

XULOSA. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonining 37-bobi – nafaqat madhiy, balki pand-nasihat ruhi bilan yo‘g‘rilgan badiiy-falsafiy bobdir. Unda Sulton Uvays Bahodirning fazilatlari orqali shoir “adolatli shoh”, “komil inson” idealini ilgari suradi. Dostonning yakuniy bobini Uvays Bahodir madhiga bag‘ishlash orqali Navoiy zamonasining eng yuksak axloqiy qadriyatlarini ifoda etgan. Nasihatlarda diniy (shariatga sodiqlik), ijtimoiy (adolat va xalqparvarlik) hamda axloqiy (ota-onaga hurmat, sadoqat) g‘oyalar uyg‘unlashgan. Shu tariqa, 37-bob Navoiyning davlat boshqaruvi va insoniy komillik haqidagi qarashlarini mujassamlashtiruvchi badiiy yakun sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Navoiy, A. To‘la asarlar to‘plami. 7-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2012. – 261 b.
2. Karimov, B. Alisher Navoiy nasihatlari poetikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
3. Navoiy, A. Devoni Foniy. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron nashri, http://navoi.natlib.uz.
4. Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2021. – 624 б.
5. Qodirova, N. Navoiyda shohlik va adolat timsoli. – “Adabiyot va san’at” jurnali, 2020, №3.
6. Jo‘rayev, A. Navoiy asarlarida tasavvufiy ramzlar tizimi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.
7. Aliyeva, M. (2018). Navoiy asarlarida shoh va xalq munosabatlari talqini. O‘zbekiston filologiya jurnali, (4), 61–66.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

8. Rasulov, X. (2017). Navoiy poetikasida badiiy san'atlar tizimi. Toshkent: Fan va texnologiya.

9. Hojiahmedov, A. (2001). She'r san'atlarini bilasizmi? Toshkent: "Sharq" nashriyoti.

10. https://izoh.uz/word/soqiy

11. http://navoi.natlib.uz:8101/uz/devoni_foniy_davomi_un_tuqqizinchi_tom/izohlar/